TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 27 - iyul 366-10-139-Q/22 Qibray tuman hokimligi

2023-2025-moliya yillari uchun Qibray tuman mahalliy budjeti loyihasini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi hamda Moliya vazirligining 2022-yil 20-iyundagi 03/03-03-01-32/2314-sonli xatiga asosan va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 21-iyuldagi “2023-2025-moliya yillari uchun viloyat mahalliy budjeti loyihasini tuzish to‘g‘risida”gi 429-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Moliya vazirligining 2022-yil 20-iyundagi 03/03-03-01-32/2314-sonli xati hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 21-iyuldagi “2023-2025-moliya yillari uchun viloyat mahalliy budjeti loyihasini tuzish to‘g‘risida”gi 429-10-0-Q/22-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan belgilangan muddatlarda 2023-2025-moliya yillariga tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari oluvchilarga hamda budjet tashkilotlariga budjet so‘rovi yuborilsin.

2023-2025-moliya yillari uchun Qibray tuman mahalliy budjet loyihasini tuzilishini ta’minlash va nazorat qilish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda joriy yilning 25-iyulidan kechikmagan holda 2023-2025-moliya yillariga budjetdan ajratiladigan mablag‘lar olish uchun Qibray tuman hokimligi moliya bo‘limiga budjet so‘rovi topshirilishi ta’minlansin.

4. Tuman ishchi guruhi (I.Xolmurodov)ga:

tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari tomonidan tuman hokimligi Moliya bo‘limiga 2023-yil uchun budjet so‘rovi va 2023-2025-yillar uchun budjet mo‘ljallarini topshirish muddatlari 2-ilovaga muvofiq belgilangan tartib va muddatlarda tuzilishini ta’minlash;

belgilangan tartibda kelgusi moliya yillariga tegishli budjet loyihasini joriy yilning 26-iyuligacha Toshkent viloyati Moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Tibbiyot birlashmasi (A.Axmedov), Xalq ta’lim bo‘limi (R.Musayev), maktabgacha ta’lim bo‘limi (F.Yuldasheva), Madaniyat bo‘limi (R.Komilov) va boshqa budjet tashkilotlari tegishli boshqarmalar bilan kelishgan holda ishlab chiqilgan shtat jadvallarini hamda tarmoq ko‘rsatkichlarini tuman hokimligi Moliya bo‘limiga taqdim etsinlar.

6. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalar hamda tuman hokimligiga 2023-2025-moliya yillari uchun budjet loyihasini tayyorlashda, budjet so‘rovini tuzishda va shakllarini to‘ldirishda Moliya vazirligining uslubiy qo‘llanmalariga amal qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Bekmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Qibray tumani hokimi **M.Mirkasimov**

Qibray tuman hokimining
2022 yil 27 iyuldagi
366-10-139-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2023-2025-moliya yillari uchun mahalliy budjet buyurtmasini tuzulishini ta’minlash va nazorat qilish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1. X.Bekmurodov	Hokimning iqtisodiy va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2. I.Xolmurodov	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri, guruh rahbari o‘rinbosari

Guruh a’zolari:

3. S.Erkinjonov	Hokimning iqtisodiy va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi
4. O.Xamidov	Tuman hokimligi iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i
5. A.Saidov	Tuman Moliya bo‘limi mudirining o‘rinbosari
6. R.Musayev	Tuman Xalq ta’limi bo‘limi mudiri
7. F.Yuldasheva	Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi mudirasi
8. A.Axmedov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
9. R.Komilov	Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i

Qibray tuman hokimining
2022 yil 27 iyuldagi
366-10-139-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining

2023-2025-moliya yillari uchun budjet loyihalarini topshirish

G R A F I G I

T/r	Tashkilot nomi	Topshirish muddati
1	Qibray tumani Veterinariya bo‘limi	2022-yil 25-iyul
2	Qibray tumani Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi	2022-yil 25-iyul
3	Qibray tumani Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	2022-yil 25-iyul
4	Qibray tumani Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	2022-yil 25-iyul
5	Qibray tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	2022-yil 25-iyul
6	Qibray Davlat Sanitariya va Epidemiologiya Markazi	2022-yil 25-iyul
7	Qibray tumani Tibbiyot birlashmasi	2022-yil 25-iyul
8	Qibray tumani Axborot kutubxona markazi	2022-yil 25-iyul
9	Qibray tumani 2-son bolalar musiqa va san’at maktabi	2022-yil 25-iyul
10	Qibray tumani 26- son bolalar musiqa va san’at maktabi	2022-yil 25-iyul
11	Qibray tumani 28-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	2022-yil 25-iyul
12	Qibray tumani hokimligi	2022-yil 25-iyul
13	Qibray tumani Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2022-yil 25-iyul
14	Toshkent viloyati ko‘zi ojizlar maxsus axborot-resurs markazi	2022-yil 25-iyul
15	Qibray tumani Bandlikka ko‘maklashish markazi	2022-yil 25-iyul
16	Qibray tumani Irrigatsiya bo‘limi	2022-yil 25-iyul
17	Qibray tumani Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	2022-yil 25-iyul
18	Qibray tumani Madaniyat bo‘limi	2022-yil 25-iyul
19	Xalq ta’limi bo‘limi	2022-yil 25-iyul
20	Maktabgacha ta’limi bo‘limi	2022-yil 25-iyul
21	Xalq deputatlari Qibray tumani Kengashi kotibiyati	2022-yil 25-iyul
22	Qibray tumani Moliya bo‘limi	2022-yil 25-iyul
23	Qibray tuman Yoshlar ishlar agentligi	2022-yil 25-iyul
24	Qibray tumani Oila va xotin qizlar bo’limi	2022-yil 25-iyul